

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


2026-yil yanvar-mart oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026-yil yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 826,9 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 409,9 mln. AQSH dollariga yoki 98,3 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 463,8 mln. AQSH dollariga (2025-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 69,8 % ga ko'paydi) va import hajmi 363,1 mln. AQSH dollariga (2,5 b. ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 100,7 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



**Navoiy viloyatining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi
savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2024 y.	2025 y.	2026 y.
Fransiya	207,4	208,0	402,7
Xitoy	32,5	50,3	253,8
Turkiya	13,9	11,1	42,8
Rossiya Federatsiyasi	43,3	44,2	36,8
Qozog'iston	13,8	17,3	21,7
Yaponiya	3,1	5,0	12,7
Germaniya	7,2	3,7	7,6
Daniya	7,9	7,7	4,6
Litva	2,1	2,7	4,0
Qirg'iz Respublikasi	3,7	2,3	3,6
Turkmaniston	2,5	1,3	3,4
Xitoy, Gonkong MMR	0,4	0,4	3,4
Eron Islom Respublikasi	2,9	3,3	3,3
AQSH	0,6	14,4	2,9
Afg'oniston	7,5	2,7	2,3
Hindiston	1,0	1,5	1,9
Tojikiston	1,2	1,1	1,9
Belarus	0,7	0,9	1,8
Koreya Respublikasi	2,6	2,1	1,7
Italiya	1,7	0,9	1,2

Navoiy viloyati jahonning 73 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (48,7%), XXRda (30,7%), Turkiyada (5,2%), Rossiyada (4,4%) va Qozog'istonda (2,6%) qayd etilgan.

II. NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

2.1- jadval


Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami eksport	273,2	463,8	104,7	169,8	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,2	5,7	94,1	70,2	3,0	1,2
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,8	3,2	3,0 b.	29,2	4,0	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	7,8	5,0	111,7	64,1	2,9	1,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	-	12,0	-	0,03	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	217,9	417,9	103,2	191,8	79,8	90,1
Sanoat tovarlari	20,5	21,2	84,0	103,6	7,5	4,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,7	0,1	15,0 b.	6,5	0,2	0,01
Turli xil tayyor buyumlar	5,3	8,3	105,4	157,5	1,9	1,8
Boshqa tovarlar	-	-	-	-	-	-
Xizmatlar	1,9	2,4	8,1 b.	125,1	0,7	0,5

Mavzuga doir havola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 % ni tashkil etib, asosiy ulush kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (90,1 %), sanoat tovarlari (4,6 %), turli xil tayyor buyumlar (1,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (1,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Navoiy viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya (86,8 %), Rossiya (4,2 %), Turkiya (1,8 %), Daniya (0,9 %), Qozog'iston (0,7 %), Qirg'iz Respublikasi (0,7 %), XXR (0,6 %), Afg'oniston (0,5 %), Turkmaniston (0,4 %) va Belarus (0,3 %) kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining XSST* bo'yicha eksporti tarkibi (2-xonali)

2.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5 749,7	70,2
05	Sabzavotlar va mevalar	3 746,6	68,4
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 471,5	56,0
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	314,2	-
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	212,5	2,4 b.
00	Tirik hayvonlar	3,7	5,4 b.
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	1,2	-
1	Ichimliklar va tamaki	-	-
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 165,6	29,2
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1 921,4	5,0 b.
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 080,1	52,7
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	90,6	85,8



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
23	Tabiiy kauchuk	73,5	82,5
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5 003,5	64,1
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 003,5	64,1
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	417 884,6	191,8
52	Noorganik kimyo moddalari	406 144,7	195,4
56	O'g'itlar	8 254,4	100,9
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	2 348,6	151,3
51	Organik kimyo moddalari	519,4	-
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	402,1	139,3
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	137,0	-
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	55,2	98,7
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	23,2	12,9 b.
6	Sanoat tovarlari	21 231,4	103,6
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	11 127,0	186,5
68	Rangli metallar	5 880,2	67,8
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	3 125,2	54,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 056,1	12,0 b.
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	42,9	15,9 b.
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	43,3	6,5
78	Avtomobillar (havo yostiichalari transport vositalari ham) shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari	18,6	-
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	12,5	11,1
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	10,9	7,2
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1,3	0,3
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	8 352,0	157,5
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	7 834,6	160,7
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	382,4	2,8 b.
85	Poyabzal	113,2	39,4
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	21,8	-
9	Boshqa tovarlar	-	-

2026-yil yanvar-mart oylarida 1,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2025-yilning mos davriga nisbatan 67,2 % ni tashkil qildi.


Meva va sabzavotlar eksporti

2.3- jadval

	Miqdori, tonnada	Ming AQSH dollar	Hajmiga nisbatan, o'sish sur'ati
Jami	1 668,3	2 505,9	70,8
mevalar va rezavorlar	279,0	399,6	54,7
<i>uzum</i>	279,0	399,6	54,7
<i>sitrus mevalar</i>	-	-	-
<i>quritilgan mevalar</i>	-	-	-
sabzavotlar	1 389,3	2 106,3	75,0
<i>pomidor</i>	738,4	1 106,0	111,6
<i>piyoz</i>	-	-	-
<i>karam</i>	-	-	-
<i>Bodring</i>	85,9	91,8	4,7 b.
yong'oklar	245,3	324,9	60,4
loviya	231,9	450,7	57,0
boshqalar	87,8	132,9	33,3

2026-yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 2,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 70,8 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etdi.


To'qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2026-yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha 9,0 mln. AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 1,9 % ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 125,1 % ni tashkil qildi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak mahsulotlari (85,0 %), sintetik, jut tolalar (11,0 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 2 358,2 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,5 % ini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 125,1 foizni tashkil qildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (71,8 %), transport xizmatlari (21,9 %), moliyaviy xizmatlar (5,0 %) va safarlar (turizm) xizmatlari (1,3 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

2026-yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 363,1 mln. AQSH dollariga yetdi va 2025-yilning mos davriga nisbatan 2,5 b. ni tashkil qildi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (81,6 %), sanoat tovarlari (7,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (5,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Navoiy viloyatining importi tarkibi

3.1- jadval


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.	2025-y.	2026-y.
Jami import	143,8	363,1	131,8	2,5 b.	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,0	6,2	67,8	102,4	4,2	1,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	1,1	57,4	89,8	0,9	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,0	0,8	21,6 b.	9,2	6,3	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,01	-	-	-	0,01
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	14,0	19,5	67,5	139,3	9,7	5,4
Sanoat tovarlari	27,7	26,8	100,0	96,8	19,2	7,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	74,2	296,3	174,2	4,0 b.	51,6	81,6
Turli xil tayyor buyumlar	4,5	8,0	113,5	177,5	3,1	2,2
Boshqa tovarlar	-	0,01	-	-	-	0,01
Xizmatlar	7,2	4,4	4,5 b.	61,0	5,0	1,2

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 222,1 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 358,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Navoiy viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2026-yil yanvar-mart oylarida Navoiy viloyati 57 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar XXR (69,1 %), Turkiya (9,5 %), Qozog'iston (5,0 %), Rossiya (4,8 %), Yaponiya (3,5 %), Germaniya (1,9 %) va Xitoy, Gonkong MMR (0,9 %) jami importning 94,7 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining XSST* bo'yicha importi tarkibi (2-xonali)

3.2- jadval


XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6 186,7	102,4
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	2 964,7	113,3
05	Sabzavotlar va mevalar	2 101,7	80,8
00	Tirik hayvonlar	475,6	92,5
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	326,0	137,9
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	151,9	-
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	116,8	180,9
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	46,1	8,4 b.
08	Hayvonlar uchun oзуqalar	3,9	8,8 b.
1	Ichimliklar va tamaki	-	-
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 113,7	89,8
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	529,2	2,4 b.
24	Probka va yog'och-taxtalar	216,3	56,7
23	Tabiiy kauchuk	211,1	-
28	Metall rudalari va metall parchalari	134,7	123,8
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	13,4	92,7 b.
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	9,0	1,7
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	828,7	9,2
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz	504,0	-
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	271,1	3,0
32	Ko'mir, koks va briketlar	53,6	73,2
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,5	-
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	2,2	10,3 b.
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,3	39,6



XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19 490,0	139,3
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	8 295,7	127,1
52	Noorganik kimyo moddalari	4 324,9	2,5 b.
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	2 964,8	146,4
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 471,0	11,8 b.
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 097,7	146,4
51	Organik kimyo moddalari	667,8	100,2
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	464,5	123,1
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	194,3	124,3
56	O'g'itlar	9,3	0,6
6	Sanoat tovarlari	26 778,8	96,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	9 888,4	149,9
68	Rangli metallar	6 372,1	162,5
67	Cho'yan va po'lat	4 789,2	43,0
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3 371,5	125,3
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	1 694,5	70,1
62	Rezina buyumlari	483,1	63,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	171,3	2,3 b.
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	8,7	14,0
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalari	296 274,0	4,0 b.
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	190 822,7	20,8 b.
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	35 272,1	3,3 b.
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	32 941,6	2,5 b.
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	18 789,3	94,9
79	Boshqa transport uskunalari	6 506,2	-
78	Avtomobililar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	5 524,2	32,6
73	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar, metallarni qayta ishlash mashinalari	5 308,0	3,3 b.
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar, metallarni qayta ishlash mashinalari	919,2	9,2 b.
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	190,7	7,0
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	8 047,9	177,5
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	3 604,9	122,2
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2 621,4	195,5
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1 460,1	8,3 b.
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	179,3	22,7 b.
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	126,6	2,8 b.
85	Poyabzal	40,3	2,9 b.
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	12,3	-
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	3,0	2,9 b.
9	Boshqa tovarlar	2,1	-
97	Oltin, monetar bo'lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	2,1	-

2026-yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 4 360,6 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 1,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 61,0 foizni tashkil qildi.

Xizmatlar importi tarkibi (ming AQSH dollarida)



Mavzuga doir havola: [Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (84,0 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,0 %), boshqa amaliy xizmatlar (6,0 %), safarlar (turizm) xizmatlari (0,9 %), moliyaviy xizmatlar (0,8 %) va sug'urta va nafaqa ta'minotiga oid xizmatlar (0,3 %) ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlar XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tdekabrdigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olindekabrdigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: O.Eshtilavov Tel: +998792235043	Ijrochi: O.Eshtilavov Tel: +998792235043 ye-pochta: nv@navstat.uz	Manzil: 210100, Navoiy sh, Amir Temur ko'chasi, 4-uy
--	--	---	---